

0‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA 0‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
0‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

5510700 – OLIY HAMSHIRALIK ISHI
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

MALAKA TAVSIFNOMASI


ANDIJON-2022

Mazkur Malaka tavsifnomasi Andijon davlat tibbiyot instituti Markaziy uslubiy xay'atida ko'rib chiqilgan, institut Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.
2022 yil "29" 06 dagi 11 - sonli bayonnoma.

Andijon davlat tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan 2022 yil "29" 06 dagi 13 - sonli bayonnoma.

Mazkur Malaka tavsifnomasi "Oliy ta'lim, davlat ta'lim standarti, asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor




B.R. Abdullajonov

Oliy hamshiralik ishi yo'nalishi mas'uli



F. Nosirova

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Q.M. Yusupov

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar.....	3
2. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisiga malakaviy talablar.....	4
3. Umumiy kompetensiyalar.....	5
4. Kasbiy kompetensiyalar.....	5
5. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni bilishi kerak.....	5
6. «Anesteziologiya va reanimatsiya» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi kvalifikatsion tavsifnomasi.....	6
7. «Xirurgiya» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi kvalifikatsion tavsifnomasi.....	8
8. «Akusherlik» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi kvalifikatsion tavsifnomasi.....	9
9. «Hamshiralik ishi menejmenti» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi kvalifikatsion tavsifnomasi.....	10
10. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisining uzluksiz kasbiy tayyorgarligi, attestatsiyadan o'tkazish va litsenziyalash.....	12

5510700-«Oliy xamshiralik ishi» yoʻnalishi bitiruvchisi sogʻliqni saqlash tizimi turli muassasalarida, sogʻliqni saqlashni boshqarish tashkilotlarida, oʻrta-maxsus kasb-xunar taʼlim muassasalarida, ilmiy-tekshiruv muassasalarida, ijtimoiy muxofaza tashkilotlarida hamda «valeologiya» sohasida faoliyat olib borish uchun tayyorlanadi. Zamonaviy talablarga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlash uchun, oliy hamshiralik ishi mutaxassisining ushbu malakaviy tavsifi asosiy xujjat boʻlib xisoblanadi. Malaka tavsifi xar joyda umumiy bir xillikni, oliy hamshiralik ishi mutaxassisini tayyorlash va ishlashga qoʻyiladigan talablarni tartibga solishni (birlashtirilishini) taʼminlaydi.

1.1.Ushbu malaka tavsifnomasi davlat meʼyoriy xujjati boʻlib, quyidagilar asosida tuzilgan:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi. PK- 4985 sonli Qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi "Oʻzbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi" PK-2857 sonli Qarori Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PK-2909-son qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 maydagi "Oʻzbekiston Respublikasida tibbiy taʼlim tizimini yanada islox, kilish chora- tadbirlari toʻgʻrisida"gi PK- 2956-sonli qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi PK-3151-sonli qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017yil 27 sentabrdagi "tibbiy xodimlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar xaqida" gi 769-sonli qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi PF-6035-sonli "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi farmoyishi

1.2.Oliy kamshiralik ishi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha malaka tavsifnomasi davlat meʼyoriy xujjati boʻlib, quyidagilarni belgilaydi

- kasbiy tayinlanishi, oliy hamshiralik ishi mutaxassisining umumiy qoidalari va ish faoliyatining shart-sharoitlari;

- oliy hamshiralik ishi mutaxassisiga qoʻyiladigan malakaviy talablar;
- oliy hamshiralik ishi mutaxassisi attestatsiyasiga qoʻyiladigan talablar;
- tibbiyot oliy muassasalari va sogʻliqni saqlash sohasidagi oliy hamshiralik ishi mutaxassisini tayyorlashga va foydalanishga masʼuliyati

1.3.Ushbu malaka tavsifnomasi moʻljallangan:

- tibbiyot institutlari va ularning filiallari, sogʻliqni saqlash muassasalari (QVP, QOP, OP, "O3" shoxobchalari);

- sogʻliqni saqlashni boshqarish tashkiloti;
- ushbu mutaxassisning mehnatidan foydalanuvchi vazirliklar, idoralar, korxonalar (muassasa va tashkilotlar);
- sogʻliqni saqlashning maxalliy tashkilotlari;
- davolash-profilaktika muassasasi;
- tibbiy assotsiatsiyalar.
- ushbu yoʻnalishdagi mutaxassislarga boʻlgan extiyojni oldindan koʻra bilish, diplom oldi, diplomdan keyingi taʼlim va adaptatsiya oʻquv reja va dasturlari ishlab chiqilishida;
- tayyorlov, qayta tayyorlashni takomillashtirishda, malaka talablarini oshirishda, professional faoliyat yoʻnaltirish va taxlil etishda,
- magistratura bitiruvchilarini yakuniy attestatsiya oʻtkazishda Davlat imtixon xayʼati maqsad va vazifalarini aniqlashda;

- oliy ta'lim muassasalarida va diplomdan keyingi tibbiy ta'lim muassasalarida davlat o'quv me'yorlari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari va tegishli yo'nalishlarda ishchi dasturlar ishlab chiqishda;
- oliy hamshiralik ishi mutaxassisi faoliyatini baholash va nazorat qilib borishda.

1.4. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisining kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi-oliy ma'lumotli mutaxassis xisoblanadi va sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida o'tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, zamonaviy usullardan keng foydalangan xolda bemorlarni sog'lomlashtirish bo'yicha asosiy muammolarni xal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalar majmuasini olib borish uchun yetarli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi aholining sog'liqni saqlash sohasida o'z professional faoliyatini Sog'liqni Saqlash vazirligining tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli yo'nalish bo'g'inlarida olib boradi:

- qishloq vrachlik punktlari, shaxar vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va filiallari, tez tibbiy yordam stansiyalari;
- Oliy tibbiy ma'lumotga eta bo'lgan mutaxassislar faoliyat yuritipi lozim bo'lgan sog'liqni saqlash tizimining Tegishli nomlanish asosida tashkilot va muassasalarida;
- Sog'liqni saqlash tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tegishli nomlanishda ko'zda tutilgan oliy tibbiy ma'lumotga eg mutaxassislar egallashi mumkin lavozimlarda.

2. OLIY XAMSHIRALIK ISHI MUTAXASSISIGA MALAKAVIY TALABLARI

2.1. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisining bilimi:

- aholi salomatligini muxofaza qilish, sog'liqni saqlashni boshqarish, tibbiyot xodimlarining javobgarligi, ularning xuquqlari va majburiyatlari soxasidagi O'zbekistan Respublikasi konunchiligining asoslari; O'zR SSV ning me'yoriy-xuquqiy aktlari;
- sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;
- etika va deontologiya tamoyillari, kasbiy kommunikatsiya va mulokat asoslari, pedagogika asoslari;
- hamshiralik ishini boshqarishning tamoyillari va asoslari;
- aholi salomatligini asosiy statistik ko'rsatkichlari va ularni xisoblash;
- mehnat xavfsizligi asoslari;

2.2. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisining ko'nikmasi:

- aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbir etish;
 - aholi orasida sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan chora tadbirlarin o'tkazish;
 - reabilitatsiya choralari talab qilinadigan xolatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish;
 - aholini ijtimoiy muxofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;
 - sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;
 - ixtisoslashtirilgan, yukori texnologik hamshiralik parvarishini va muolajalarini amalga oshirish;
- “valeologiya” tibbiy ixtisosligi bo'yicha sog'liqni saklash tizimini birlamchi muassasalarida (kishlok vrachlik punktlarida, poliklinikalarida, oilaviy poliklinikalarida, markaziy ko'p tarmokli tibbiyot birlashmalarida) tibbiy faoliyatni amalga oshirish;

- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish.

Oliy xdmshiralik ishi mutaxassisi o'z faoliyatini quyidagi asosiy ixtisosliklarda amalga oshiradi:

1. Anesteziologiya va reanimatsiya
2. Xirurgiya
3. Akusherlik
4. Hamshiralik ishi menejmenti

**Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi kompetensiyalari
Umumiy kompetensiyalar:**

1. Abstrakt fikrlash, analiz, sintez qobiliyatlari, o'qish va dalillarga asoslangan zamonaviy tibbiyot bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati.
2. Amaliy vaziyatlarda bilimdarni qo'llash qobiliyati;
3. Kasbiy faoliyatni moxiyatini tushunish qobiliyati;
4. Yangi sharoitga adaptatsiya qilish va faoliyat yuritish qobiliyati;
5. Asoslangan qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash, shaxslararo kommunikatsiya qilish qobiliyatlari.
6. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati.
7. Ijtimoiy mas'uliyat bilan va ongli ravishda xarakat qilish qobiliyati.
8. Biologik, psixologik, madaniy va mafkuraviy omillarni xisobga olgan x,olda muloqot qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetensiyalar:

1. Ijtimoiy javobgarlik va kasbiy faoliyat:
 - ijtimoiy sharoit va jamoat sog'liqni saqlashni xisobga olgan holda hamshiralik faoliyatni amalga oshirish;
 - bemorlar/mijozlar va xamkasblar oldida ma'suliyat hamda kasbiy va etik standartlarga muvofik kasbiy faoliyatni olib borish;
 - hamshiralik ishini rivojlantirishga xissa qo'shish;
 - vaziyatni chuqur o'rganish hamda extiyoj va imkoniyatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish.
2. Kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish:
 - shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish;
 - kasbiy standartlar, axdoki va shaxsiy meyorlarga rioya kilgan xolda faoliyat yuritish.
3. Yosh mutaxassislar va talabalarning professional o'sishini takomillashtirishga o'z xissasini qo'shish.
 - hamshiralalar ta'limiga xissa qo'shish;
 - xamkasblar va boshqa tibbiyot xodimlarini professional o'sishiga xissa qo'shish.

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni:

- dalillarga asoslangan tibbiyot asoslari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- chet tillar;
- hamshiralik ishida ilmiy izlanishlar asoslari;
- ilmiy izlanishlar olib borish metodologiyasi;
- aholi salomatligini muxofaza qilish, sog'liqni saqlashni boshqarish, tibbiyot xodimlarining javobgarligi, ularning xuquqlari va majburiyatlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining asoslari;
- O'zR SSV ning me'yoriy-xuquqiy aktlari;
- tibbiy psixologiya asoslari;

- kasbiy pedagogika asoslari va kasbiy pedagogik texnologiyalar;
- hamshiralik jarayon asosida bemorlarga parvarishni amalga oshirish tamoyillari;
- klinik farmakologiya asoslari;
- infeksion nazorat asoslari;
- favkulotda tibbiyot asoslarini **bilishi kerak**
- hamshiralik jarayon bo'yicha xujjatlarni olib borish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi meyoriy va xuquqiy xujjatlarni amaliyotga tadbiiq etish;
- o'z faoliyatida zamonaviy tibbiyot yutuqlarini tadbiiq etish;
- aholi orasida sohlom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish;
- reabilitatsiya choralari talab qilinadigan xolatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish;
- aholini ijtimoiy muxofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;
- sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;
- tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

**«ANESTEZOLOGIYA VA REANIMATSIYA» IXTISOSLIGI
BO'YICHA OLIY XAMSHIRALIK ISHI MUTAXASSISI
KVALIFIKATSION TAVSIFNOMASI**

«Anesteziologiya va reanimatsiya» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Reanimatsionn bemorlarga kompleks parvarishni ta'minlash:
 - individual yondoshish va xavf omillarini xisobga olgan xolda yordam ko'rsatish;
 - profilaktik parvarishni ta'minlash;
 - parvarish va muolajalarni o'tkazish;
 - ruxiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;
 - biologik, ruxiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni xisobga olgan xolda bemor bilan muloqat qilish.
2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan intensiv yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish):
 - tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan xolda, anesteziologiya va reanimatsiyani rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;
 - olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash;
 - kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.
3. Anesteziologiya va reanimatsiya soxasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:
 - ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar);
 - sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baxolash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baxolash.

«Anesteziologiya va reanimatsiya» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni bilishi kerak:

Anesteziologiya soxasida:

- reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining ishini tashkil etish. Deontologiya va xuquq masalalari. Anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi jixozlanishi.
- Anesteziologik blokning aseptika va antiseptika qoidalari.

- Zamonaviy ohriqsizlantirish turlari va usullari
- Operatsiya vaqtida va undan keyin xayotiy muxim ko'rsatkichlarni nazorat qilish usullari.
- Zamonaviy narkoz-nafas berish jixozlari.
 - Anesteziologning ish joyini tayyorlash va jixozlashni.
 - Anesteziologiya va reanimatsiyada ishlatiladigan tibbiy jixozlarni.
 - Anestetiklar dozalarini tayyorlash va yuborish yo'llari..
 - Umumiy anesteziya asoratlari va ularni oldini olish choralarini.
 - Turli xil jarroxlardan keyingi davrda hamshiralik jarayoni xususiyatlari.
 - Narkoz, nafas berish, nazorat-diagnostika qilish apparatlar bilan ishlashda mexnat muxofazasi qoidalari.

Reanimatologiya sohasida:

- Og'ir va terminal xolatdagi bemorlarning ahvolini baxolash va asosiy simptom va sindromlar. Shoshilinch shifokorgacha bo'lgan tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari va asoslari.
- Organizmning xayotiy muxim ko'rsatkichlarini nazorat qilish usullari.
- Suv-elektrolit almashinuvi, kislota-ishqoriy ahvoli, infuzion terapiya
- Parenteral ovqatlantirish tamoyillari.
- Transfuziologiy moddalar va ularni yuborish.
- O'tkir nafas yetishmovchiligi klinik belgilari. Kislorodoterapiya. O'NEda hamshiralik yordam.
- O'tkir yurak yetishmovchiligi turlari. Sinkope. Kollaps. Shok parvarish xususiyatlari.
- Terminal xolatlar, yurak-o'pka reanimatsiyasi.
- Komada bo'lgan bemorlarga hamshiralik parvarish xususiyatlari.
- Ekzogen zaxarlanishli bemorlarga parvarish xususiyatlari.
- Operatsiyadan keyingi davrda hamshiralik parvarish xususiyatlari.

«Anesteziologiya va reanimatsiya» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxasisi quyidagi malakalariga ega bo'lishi kerak:

- nafas to'xtaganligi belgilarini aniqlash;
- yurak tuxtaganligi belgilarini aniqlash;
- gipoksiya turlarini ajratish;
- sun'iy nafas berish usullarini;
- yurakni bilvosita massajini o'tkazishni;
- vena qon tomirlarga naycha qo'yishni;
- arterial va venoz bosimni o'lchashni;
- kardiomonitornlarni ish jarayoniga tayyorlashni;
- infuzomatni tayyorlashni;
- defibrillyator apparatini ish jarayoniga tayyorlashni;
- laringoskopni to'liq yig'ishni;
- intubatsiya naychalarni yoshiga qarab tanlashni;
- oshkozon uchun zondni o'lchab olishni;
- oshkozonga zond qo'yishni;
- siydik kopiga naycha qo'yishni;
- yotoq yaralarga ishlov berishni;

- terminal xolatdagi bemorlarni ovqatlantirishni;
- bemorlar bilan muomalada bo'lishni;
- dorilarni eritib vena tomirga yuborishni;
- gemotransfuziya o'tkazishni;
- plazmatransfuziya o'tkazishni;
- albumintransfuziya o'tkazishni;
- transfuziya o'tkazishdan oldin biologik sinamalarni o'tkazishni;
- asorat bo'lishini oldini olishni va bo'lganda tez yordam berishni;
- bioximik taxlil uchun qon olishni;
- bakteriologik tekshirish uchun bemorni tayyorlashni;
- xar-xil funksional tekshiruvlarga bemorlarni tayyorlashni;

**«XIRURGIYA» IXTISOSLIGI BO'YICHA OLIY XAMSHIRALIK ISHI
MUTAXASSISI KVALIFIKATSION TAVSIFNOMASI**

«Xirurgiya» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Xirurgik bemorlarga kompleks parvarishni amalga oshirish: utkazilgan jarroxlikni xisobga olgan holda hamshiralik parvarish taktikasini tanlash va amalga oshirish; xirurgik bemorlarga profilaktik yordam ko'rsatish; xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga maslaxat va axborot berish; xirurgik operatsiyalarni o'tkazishda qatnashish; xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga ruxiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish.
2. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida xirurgik patologiyasi bo'lgan bemorlarga hamshiralik parvarishni tashkil etish va amalga oshirish:
 - mavjud ijtimoiy xizmatlar asosida jarroxlik kasalliklarni hamshiralik parvarishni muvofiklashtirish;
 - boshka tibbiy mutaxassilar bilan birgalikda faoliyatni olib borish; jarroxlik hamshirasini faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;
 - shoshilinch jarroxlik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirish; tibbiy xujjatlarni tulkirish;
 - xirurgik bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlarni doimiy yaxshilash.
3. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan jarroxlik xamshiralik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish):
 - tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan holda, jarroxlik hamshiralik parvarishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;
 - olingan ilmiy ahborotning axamiyatini baholash;
 - kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.
4. Xirurgiya soxasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:
 - ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);
 - sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baxolash, amaliyotga tadbiq etish

«Xirurgiya» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni bilishi kerak:

- xirurgik kasalliklarining etiopatogenetik asoslari;
- xirurgik kasalliklarining klinik manzaralari va diagnostikasining alomatlari;
- xirurgik kasalliklarning odatdagi va asoratlangan kechishida, kasalning yoshi va premorbid fonga bog'liq ravishdagi kechish alomatlari;
- alohida simptom va sidromlarning diagnostik ahamiyati;

- instrumental, serologik, bioximik, morfologik tekshiruv usullari, ularning imkoniyatlari va qo'llanilishi;
- katta yoshdagilar xirurgik patologiyalarini davolashning umumiy prinsiplari;
- xirurgik kasalliklari bor katta yoshdagi bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya usullari;
- sog'liqni saqlash birlamchi zvenolarida katta yoshdagi aholiga xirurgik yordam ko'rsatish prinsiplarini egallash;
- kichik xirurgik manipulyatsiyalar va amaliyotlar usullari;
- xirurgik patologiyani aniqlash uchun bemordan anamnez yig'ish va tekshirishni;
- reabilitatsion rejimlar chizmasini ishlab chiqish;
- shoshilinch vaziyatlarda tezkor yordam ko'rsatish;
- kichik amaliyotlarni bajara olish;
- organizmning anatomo-fiziologik, yoshiga bog'liq xususiyatlarni;
- organizmdagi funksional tizimlarning o'zaro bog'liqligi va regulyatsiyasi;
- sog'lom xayot kechirish tarzi va salomatlikning ijtimoiy ahamiyatining gigienik asoslari;
- davolash va tashxis qo'yish asboblarini qo'llashga ko'rsatmalar;
- kechiktirilmas xolatlarda davolash haqida;

«Xirurgiya» ixtisosligi bo'yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi malakalariga ega bo'lishi kerak:

- hamshiralik muolajalarni bajarish;
- bemorlarda asosiy xirurgik patologiya simptomlarni aniqlash va ajratishni bilish;
- xirurgik patologiyada shoshilinch shifokorgacha yordam ko'rsatish;
- bemorlarni laborator, funksional va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash;
- operatsiya xonasini va qatnashchilarini tayyorlash;
- aseptika va antiseptika qoidalarini amalga oshirish;
- bemorning infeksiyon muxofazasini olib borish;
- toza va yiringli bog'lamlarni qo'yish;
- operatsiyaga xirurgik instrumentlarni komplektatsiya qilish;
- tikish materiallarini tayyorlash;
- gemostazni amalga oshirish;
- bemorni operatsiya xonasiga va operatsiya xonadan palataga transportirovka qilish,
- o'z vakolatlari doirasida va shifokor ko'rsatmalariga asosan diagnostik, reanimatsion, reabilitatsion, profilaktik, sanitar-gigienik va davolash muolajalarini amalga oshirish;
- bemor ahvolini baholash va asosiy simptom va sindromlar belgilarini ajratish;
- dori-darmonlarni saqlash va ishlatish qoidalariga rioya qilish;
- mehnat muxofazasi qoidalariga rioya qilish;

«AKUSHERLIK» IXTISOSLIGI BO'YICHA OLIY XAMSHIRALIK ISHI MUTAXASSISI KVALIFIKATSION TAVSIFNOMASI

«Akusherlik» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Fertil yoshdagi ayollarga kompleks parvarishni ta'minlash:
 - individual yondoshish va xavf omillarini xisobga olgan xolda yordam o'rsatish;
 - profilaktik parvarishni ta'minlash;

- parvarish va muolajalarni o'tkazish;
- ruxiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash;
- biologik, ruxiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni xisobga olgan xolda bemor bilan muloqat qilish.

2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan akusherlik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) :

- tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan xolda, akusherlik ishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash;

- olingan ilmiy axborotning axamiyatini baholash;
- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.

3. Akusherlik soxasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:

- ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar);
- sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baxolash, amaliyotga tadbiq etish, samaradorligini baxolash.

«Akusherlik» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni bilishi kerak:

- xomiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrlar fiziologiyasi va patologiyasi;
- xomiladorlik davrida infeksiyalar; xomila ichi infeksiyalar;
- tug'ruqqacha yordam muassalaridagi sanitar -antiepideмик hamda davolash muxofazaviy tartib bo'yicha amaliy tajribalarini;
- ona va xomila, shuningdek, yangi tug'ilgan chaqaloqning fiziologik xolatlarini;
- hamshiralik tashxisini qo'yish, kuzatish, tug'ruqda yordam berish, hamshiralik parvarishi va faol patronaj olib borish uslublarini
- organizmning anatomo-fiziologik, yoshiga bog'liq xususiyatlarni;
- organizmdagi funksional tizimlarning o'zaro bog'liqligi va regulyatsiyasi;
- sog'lom hayot kechirish tarzi va salomatlikning ijtimoiy ahamiyatining gigienik asoslari;
- davolash va tashxis qo'yish asboblarini qo'llashga ko'rsatmalar;
- kechiktirilmas xolatlar, asosiy akusherlik patologik xolatlarda davolash haqida;
- kontrasepsiyaning xamma usullarini maslaxatlash bilimlarini;
- bachadon ichi spiralini qo'yish va olish oilani rejalashtirish va sog'lom onalik choralarni olib borish ko'nikmalarini ishlab chiqarish va bilimlarini shakllantirish;
- Shoshilinch akusherlik xolatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari;
- Yangi tug'ilgan chaqaloq ahvolini baholash;
- Fiziologik chilla davri;
- Chaqaloqlar chilla davri patologik xolatlari;
- Ko'krak suti bilan emizish tamoyillari;
- Profilaktik emlash kalendari.
- Chaqaloqlar reanimatsiyasi asoslari.

**«XAMSHIRALIK ISHI MENEJMENTI» IXTISOSLIGI
BO'YICHA OLIY XAMSHIRALIK ISHI MUTAXASSISI
KVALIFIKATSION TAVSIFNOMASI**

«Xamshiralik ishi menejmenti» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Hamshiralik personalni boshqarish va tibbiy muassasa faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha boshqarish qarorlarni ishlab chiqish:

- o'z faoliyatini ilmiy izlanishlar asosida tashkil etish, uning kasbiy faoliyati sohasida

foydalaniladigan axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun kompyuter usullarini egallash;

- boshqaruvning moxiyatini, sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, me'yoriy va ma'muriy xujjatlar bilan ishlash va sog'liqni saqlash soxasidagi professional funksiyalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy va xuquqiy bilim asoslarini qo'llash;

- muassasaning parvarishi xizmatining potensial rivojlanishi va ishlashini taxlil qilish, tashkilotda o'zgarishlarning zarurligini aniqlash, innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha xarakat rejasini ishlab chiqish;

- kelajakdagi kasbining tabiati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, sog'liqni saqlash va parvarishning asosiy muammolari, ularning aloqasi va ijtimoiy siyosatning boshqa soxalari bilan o'zaro bog'liqligi;

- kasbiy funksiyalarni bajarish bilan bog'liq vazifalarni belgilash va vazifalarni belgilash, ularni xal etish uchun o'rganilayotgan fanlarning usullarini qo'llash;

- parvarishlash tizimida tashkilot faoliyatining taxlili, uning cheklanishi va saloxiyatini anixlash, samaradorlikni oshirish dasturini ishlab chikish, mavjud resurslarni xisobga olgan xolda va uni amalga oshirishni ta'minlash;

2. Ish joyida ijtimoiy-psixologik tartibga solishni amalga oshirish;

- xamkasblar bilan muloxot qilish va jamoada ishlashga, ijrochilarning ishini tashkil etishga, tashkilotning ishchi kuchiga bog'liq boshqaruv qarorlarini topishga va boshqarishga tayyor bo'lish;

- tashkilotlarda nizolarni, stresslarni va innovatsiyalarni boshqarish uchun psixologiya bilimi bilan foydalanadigan tashkilotlarda samarali muloqot usullarini qo'llash;

Aholi salomatligini ahvolini taxlil qilish;

- aholi salomatligini ahvoli va tibbiy, tibbiy-ijtimoiy va sog'liqni saqlashga bo'lgan extiyojini taxlil qilish usullarini qo'llash, ularni kasbiy muammolarni yechishda foydalanish;

- bemorga tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning samaradorligini baxolash uchun bemorning sog'ligini aniqlash metodologiyasi, malakali parvarish qilish va ularning shaxsiy extiyojlarini hisobga olgan xolda ma'lumotlarni yig'ish va baholash usullarini qo'llash;

- sog'lom turmush tarzi xaqida ilmiy tushuncha mavjud, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish usullari, jismoniy o'zini o'zi yaxshilash ko'nikmalarini qo'llash;

- profilaktika, sog'liqni saqlash choralarini tashkil etish va o'tkazish;

- favqulotda vaziyatlarning diagnostikasi, favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha choralar tashkil etish va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

3. Xamshiralik sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazish.

- axborot bilan mustaqil ishlash o'quv, informatsion, me'yoriy, ilmiy);

- kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish, ijtimoiy ahamiyatga eta muammolar va jarayonlarni ilmiy taxlil qilish;

- Onalik va bolalikni muxofazalash bo'yicha tadqiqotlar olib borishda sog'liqni saqlash ahvolini tahlil qilishning statistik, ijtimoiy, gigienik, epidemiologik usullaridan foydalanish;

- aholi sog'lig'ini baholashda aholiga nisbatan parvarish qilish sifatini baholashda sifat va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlarni olib borish;

- dalillarga asoslangan tibbiyot asosida olingan natijalarni baholash, olingan natijalarni tahlil kilish, tegishli xulosalar chiqarish, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berish va samaradorlikni baxolash;

«Hamshiralik ishi menejmenti» ixtisosligi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagilarni bilishi kerak:

boshqarishning rivojlanish bosqichlari va tamoyillari, funksiyalari, boshqarish uslublari;

- boshqarish faoliyatida samaradorlikni aniqlash va yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- sog‘liqni saqlashni boshqarishda nazariy asoslari va tamoyillari;
- aholiga tibbiy yordamni tashkil qilishda hamshiraning roli va sog‘liqni saqlashda hamshiralik ishini boshqarish;
- sog‘liqni saqlashni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish asoslari bo‘yicha chora tadbirlari, usullari;
 - O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini hamshiralik ishi yo‘nalishining maqsad, vazifalari va asosiy y)shalishlari;
 - tibbiy muassasalar va ularning bo‘limlarini boshqarishda zamonaviy menejer va yetakchining o‘rni va roli;
 - zamonaviy menejment va yetakchilik nazariyalari va amaliyoti;
 - xodimlarni ishga qabul qilish, ularni tanlash va ish joylarini taqsimlash;
 - xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- muassasaning moddiy, texnika resurslarini boshqarish tamoyillarini «Hamshiralik ishi menejmenti» ixtisosligi bo‘yicha oliy hamshiralik ishi mutaxassisi quyidagi malakalariga ega bo‘lishi kerak:
 - aholi salomatligi, davolash-profilaktika va sanitariya-epidemiologiya muassasalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini taxlil qilish, ularni qiyosiy baholash;
 - aholiga hamshiralik yordamini tashkil qilish;
 - DPMni boshqarishda oliy ma‘lumotli hamshirani olib boradigan faoliyati;
 - xodimlarni muassasa oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘naltira bilishi;
 - o‘zida mehnat jamoasining yetakchisi sifatlarini shakllantira bilishi;
 - xamshiralalar orasida majlislar va kengashlarni tashkil etishi va olib borishi;
 - xodimlarni boshqarish;
- muassasa va uning bo‘limlarida vujudga keladigan ziddiyatlarni samarali xal etish.

OLY HAMSHIRALIK ISHI MUTAXASSISINING UZLUKSIZ KASBIY TAYYORGARLIGI, ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH VA LITSENZIYALASH

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi muntazam ravishda o‘zini o‘zi o‘qitish orqali o‘z kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi lozim. Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi oliy tibbiyot o‘quv muassasalari, malaka oshirish institutlarida sertifikatlar va/yoki guvohnomalar olish bilan bir oylik sikllar ko‘rinishida ta‘lim olishlari mumkin.

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi sog‘liqni saqlash boshqarmasi yoki halqaro tashkilotlar tomonidan tuman, viloyat va respublika miqyosida tashkil etilgan, yakunida sertifikatlar, attestatlar, guvohdomalar olish bilan, qisqa muddatli o‘quv kurslari va seminarlarida ishtirok etishi lozim.

Har bir Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi xar yili ko‘rsatiladigan tibbiy yordamning sifatini yaxshilash uchun ish auditini olib boradi.

Har bir Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi xar yili aholi salomatligini muhofaza qilish va bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha olib borilgan ishlar xaqida xisobot topshiradi.

Har 5 yilda Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi o‘z malakasini tasdiqlash uchun kasbiy attestatsiya imtixonini topshirishi shart.

Malaka tavsifnomasi tuzilishida quyidagi xujjatlar bilan ishlangan

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari.

O‘zbekiston Respublikasi Xukumati va Sog‘liqni saqlash vazirligining direktiv xujjatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot va farmasevtika ta‘limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 6 maydagi PK-4310-sonli

qarori.

2. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirining “269” sonli “Birlamchi maqsadli ixtisoslashtirish kurslariga qabul qilish to‘g‘risida”, 2019 yil 31 oktabrdagi buyrug‘i.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida» 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli qarori.
4. «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son farmonlari.
5. «O‘zbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida», 2017 yil 29 martdagi PK,-2857-sonli qarori.
6. «2019-2022 yillarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi darajasini oshirish to‘g‘risida»gi 2018 yil 18 dekabrda PK,-4063-sonli qarori.
7. Postanovlenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 1 iyulya 2009 goda №PK-1144 «2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida»
8. Prikaz №277 ot 20 iyunya 2007 goda O profilaktike peredachi VICH infektsii ot materi k rebenku v rodilnykh uchrejdeniyax sistema Ministerstva zdravooxraneniya.
9. Prikaz №428 ot 27 sentabrya 2007g.«O vnedrenii rassledovaniya kriticheskix sluchaev v akusherskoy praktike v rodovspomogatelnykh uchrejdeniyax sistema Ministerstva zdravooxraneniya Respubliki Uzbekistan»
10. Prikaz №600 M3 RUz ot 29.12.2007. O soblyudeni sanitar-nogigienicheskogo protivoepidemiologicheskogo i dezinfektsionnogo rejima v lecheno-profilakticheskix uchrejdeniyax v Respublike Uzbekistan
11. Prikaz № 243 ot 4 avgusta 2009 goda «O vnedrenii Konfidentsialnogo issledovaniya sluchaev materinskoy smertnosti v lecheno-profilakticheskix uchrejdeniyax sistema Ministerstva zdravooxraneniya»

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekistan” NMIU, 2017. - 476.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekistan” NMIU, 2017. - 485 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. Natsionalnyy standart po povysheniyu kachestva okazaniya perinatalnoy pomoshchi v rodovspomogatelnykh uchrejdeniyax sistema zdravooxraneniya Respubliki O‘zbekistan. Tashkent, 2015. 136s.
5. Peredovye praktiki v akusherstve i ginekologii. Rukovodstvo. D.K. Najmutdinova s soavt. Tashkent, 2017.500s
6. Neotlojnaya pomoshch v akusherskoy praktike. Paket uchebnykh materialov po IVBR. USAID, Proekt Zdorovaya Semya. Tashkent.-2014.- 209s.
7. Preduprezhdenie transmissiy VICH ot materi rebenku(uchebnoe posobie dlya akusher-ginekologov, neonatologov, pediatrov, infeksionistov, semeynykh vrachev, organizatorov zdravooxraneniya, vrachev-internov i studentov), Ukraina. UNICEF, 2013.-268s.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, kat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyoti matbaa ijodiy uyi.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga

quramiz. 2017y, 488 bet. O‘zbekistan matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyoti matbaa ijodiy uyi.

10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O‘zbekistan matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyoti matbaa ijodiy uyi.

Internet saytlari

www//http:edu-uz

www//http: pediater-ru

www//http: pubMed

www.medport.ru/medpb/ - Meditsina Peterburga

www.mediasphera.aha.ru/pediatr/ped-mn.htm - Rossiyskiy vestnik perinatologii i pediatrii


www.ew - a.org. - «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH Vienna

**KELISHUV VAROG'I:
ISHLAB CHIQLDI:**



M.O.

Andijon davlat tibbiyot instituti

rektori  M.M. Madazimov

“ 29 ” 06 2022 yil

KELISHILDI:

Andijon viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.


boshlig'i  S.G. Yusupov

“ 30 ” 06 2022 yil

Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.


boshlig'i v.b.  A.Yu. To'xtaqluv

“ 30 ” 06 2022 yil

Namangan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi



M.O.

boshlig'i  A.M. Iminov

“ 30 ” 06 2022 yil

Andijon 2022 yil